



**SIYOSIY RISKLARNI BOSHQARISH TEXNOLOGIYASI VA SIYOSIY
PROGNOZLASH VA FORSIGHT TEXNOLOGIYALARI**

Shomansurov Shoaziz Sharofiddin ógli

Anatatsiya Ushbu amaliy ishda siyosiy risklarni boshqarish texnologiyalari orqali prognozlash va ehtimoliy risklarni aniqlashda foresight texnologiyalaridan foydalaniladi. Asosiy mavzu sifatida O'zbekiston Respublikasining pul-kredit siyosatini tahlili olingan bo'lib uni prognozlashda ssenariyning uch xili texnologiyasidan foydalandi. Shuningdek tahlil qilish jarayonida qiyosiy tahlil uslubi oraqali O'zbekiston Respublikasining pul-kredit siyosati va unga qo'shni davlatlarning pul-kredit siyosatidagi kamchiliklar va samarali tomonlari analiz qilindi.

Amaliy siyosatshunoslikka hos bo'lgan jihatlardan biri sifatida prognozlash ma'lumotlarda aniq va puxtaligi yordamida o'tmishdan saboq olgan holda buguni yaqin kelajagi va uzoq kelajak haqida tahminiyl natijalarni ko'rsatadi. Siyosiy risklar (political risk) har bir davlatning ichki va tashqi siyosati belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Mamlakat riski (country risk) o'rganilib davlatning resurslari salohiyati va chidamliligiga baho beriladi. Ichki va tashqi risklarni birday baholash va ularni kamaytirish va oldini olishda Prognozlash (foresight) texnologiyalaridan foydalanish anchagina samarali sanaladi. Quyida prognozlash texnologiyalari metodikasi o'rganib misollar orqali ochib berishga harakat qilinadi.

Foresight tushunchasi:

Forsayt - bu o'rta va uzoq muddatli istiqbolda kelajak tasvirini yaratishga qaratilgan tizimli, hamkorlikdagi jarayon bo'lib, u hozirgi vaqtda qabul qilinayotgan qarorlar sifatini oshirish va hamkorlikdagi harakatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan (FOREN Guide).¹

Davlatlar ham, shaxslar kabi har kuni harakatlarni rejalashtirish va ba'zi hollarda ijobiy yoki salbiy tomonga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan global qarorlarni qabul qilish bilan yuzma-yuz keladi. Qabul qilingan qarorlarning ma'lum natijaga ega bo'lishi uchun, masalan, davlatlarning iqtisodiy yuksalishi uchun, rejalashtirish usuli (yoki keyinchalik - prognozlash) qo'llanila boshlandi. Prognozlar ko'p miqdordagi ma'lumotlar, ma'lumotlarni tahlil qilish va ekspertlarning fikrlari asosida tuzilgan.²

DUNyodagi juda ko'p aql markazlarida forsayt yonilishiga chuqur urg'u beriladi. Riskni baholash va boshqarishda shuningdek uni kelajakda pasaytirishning kaliti sifatida ko'riladigan forsaytning rivojlanishiga noaniqlikni boshqarish instrumentlari va usullari ham turtki bo'lgani³ uni bugungi kundagi ahamiyatini ochib beradi.

¹ Форсайт; от прогноза к формированию будущего. Крюков.С.В, Современная экономическая теория

² Эволюция форсайта: от прогнозирования и планирования к форсайту

³ Эволюция форсайта: от прогнозирования и планирования к форсайту



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Insoniyat har doim kelajak bilan qiziqib kelgan. "Forsayt" ehtimoliy kelajakni ko'ra bilish variantlaridan biridir. "Forsayt"ni kelajakni ko'ra bilish sifatida birinchi g'oyalar antik davrdayoq paydo bo'lgan va rivojlanishning nihoyatda murakkab yo'lini bosib o'tgan.

Bosqichlar	Ko'rinishi	Amalga oshirish
Antik davr	Odatda, bashorat qilish ilohiy bilim bilan bog'liq deb qaralgan, ammo turli nazariyalar rivojlanishi natijasida bashorat qilish konsepsiyasiga ilmiy yondashuv paydo bo'lgan. Birinchi ilmiy asarni Pifagorning qadimiy "Tabiiy hodisalar bashorat qilish" nomli ishlari bilan bog'lash mumkin. Bu ishlar eramizdan avvalgi 2000-yildan oldin yaratilgan. Bu davrda bashorat qilish ko'proq ilohiy va falsafiy xarakterga ega bo'lgan.	Bashoratlar ko'pincha mistik tasavvurlar va subyektiv qarashlarga asoslangan. Shu sababli, Pifagor asarlari ko'pincha inson faoliyatini bashorat qilishning diniy xarakterda bo'lgan dastlabki urinishlarini aks ettiradi.
Yechimlar davri	Bu davrda insoniyat o'z kelajagini oldindan bilishga intilib, jamiyat tizimlarini rivojlantirish va boshqarishning muhimligini tushunib yetgan. Bashoratlar ijtimoiy rivojlanish tizimlariga ko'proq ahamiyat qaratilgan holda amalga oshirilgan.	Yechimlar davrida kelajakni tushunish va jamiyatni boshqarishda mavjud ijtimoiy tizimlar asosida ishlash ustunlik qilgan. Yondashuv asosan amaliy xarakterga ega bo'lgan.
Futuristik davr	Bu bosqichda mualliflar ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishgan va o'z ishlari orqali kelajakni bashorat qilishga intilishgan. XX asrning 60-yillarida bu yondashuv xalqaro miqyosda rivojlanib, insoniyatning kelajak yo'nalishlarini shakllantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, tashkilotlar turli kelajak variantlarini o'rganishga kirishgan.	Ilmiy bashorat qilish usullarining yetishmasligi sababli, bu yondashuv subyektiv tasavvurlar va fikrlarga asoslangan. Faqat XX asrning ikkinchi yarmida texnologik bashorat qilish usullari shakllana boshlagan.

Jadval 1 – Bashorat tizimining evolyutsion yo'li⁴

⁴ Технология форсайт в выборе приоритетных стратегий социально-экономического развития



Forsayt alohida soha, shuningdek o'sha sohaning asosiy texnologiyasi hisoblanadi. Ushbu texnologiya tarifi sifatida quydagi gapni keltirsa bo'ladi. "Forsayt" davlat, jamiyat va biznes rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish elementlarini o'z ichiga olgan o'ziga xos tashkiliy texnologiyadir.⁵

Forsayt rivojlanishi 3ta bosqichni o'z ichiga oldi. Rus zamonaviy olimlarining tadqiqotlarida ushbu 3 bosqish quydagicha keltiriladi;

1. Texnologik bosqich
2. Bozor yo'nalishi bosqichi
3. Ijtimoiy-iqtisodiy bosqich.⁶

Tadqiqot keysi:

Ushbu tadqiqotning keysi sifatida O'zbekistonning 2025-2027-yillardagi pul-kredit siyosati tadqiq qilindi. Unda o'tgan yilgi pul-kredit sohasidagi kamchilik va yutuqlar, shuningdek qonunchilik va unga kiritilgan o'zgarishlar tahlil qilinib kelajak 2 yil uchun tahminiy dastur ishlab chiqishga harakat qilingan. Ushbu tadqiqotda materiallar bilan ishlashda rasmiy materiallardan foydalanildi.

Qonunchilik:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-sonli "Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida" Farmoni pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma bosqich inflatsion targetlash rejimiga o'tkazishni⁷ huquqiy asosi bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasining "Soliq va byudjet siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" gi 2024-yil 3-dekabrda qabul qilingan Qonuni natijasida soliq tizimlariga bir qancha o'zgartirishlar kiritildi. Shuningdek bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib turgan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish yuzasidan ham huquqiy ko'rsatmalar berildi.

O'zbekistonda mamlakat ichki riskini boshqarish va kamaytirishda uning moliyaviy jihatlarini o'rganish ahamiyatlidir. O'zbekistondagi ichki va tashqi pul aylanmalari, tadirkolik, soliq tizimi, investorlar masalasi, byudjet taqsimoti kabi bir qator moliyaviy jihatlarining hajmi, samaradorligi va samarasizligi natijasida pul-kredit siyosatida bir qator muvaffaqiyatlar va kamchiliklarni kuzatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 23-noyabrdagi 37/1-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Pul-kredit siyosatining 2025 yil va 2026-2027 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" dasturi ishlab chiqildi. Unda O'zbekistonda Makroiqtisodiyotni rivojlantirish va pul-kredit siyosati samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy dasturlar ishlab chiqildi.

⁵ Технология форсайт в выборе приоритетных стратегий социально-экономического развития

⁶ Технология форсайт в выборе приоритетных стратегий социально-экономического развития

⁷ <https://lex.uz/docs/-4600824>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Dastur kelajakda foydalanilishi uchun prognoz ko'rinishida ishlab chiqildi va ssenariy usulidan foydalanib kelasi 3 yil prognoz qilindi.

Daslab 2024-yilgi raqamlar bilan tanishib chiqamiz.

O'zbekistonning oltin-valyuta zaxiralari 2024 yilni **41,2 mlrd dollar** bilan yakunladi. 2024 yil boshida oltin narxi bir troya unsiya uchun 2 000 dollar atrofida edi. Yil davomida narx 2 800 dollarga yaqinlashdi va dekabr oxirida 2 640 dollar atrofida bo'ldi.



*Oltin narxi. AQSH doll/troy unsiyasi.*⁸

O'zbekistonda 2024 yil davomida inflyatsiya **9,8 foizni** tashkil qildi. Undan oldingi yillarni qiyosiy ko'radigan bo'lsak 2016 yil — 9,7 foiz; 2017 yil — 18,8 foiz; 2018 yil — 14,3 foiz; 2019 yil — 15,2 foiz; 2020 yil — 11,1 foiz; 2021 yil — 10 foiz; 2022 yil — 12,3 foiz; 2023 yil — 8,8 foizni tashkil etgan. 2024-yilgi inflatsiyani oshish sabablaridan biri sifatida Energiya mahsuotlaiga tarif rejalarining joriy etilishini ko'ramiz.

Tashqi savdo **60 mlrd dollarga** yaqinlashdi. Bunda eksport 24,2 mlrd dollar (+4,4 foiz), import 35,2 mlrd dollar (+3 foiz) bo'ldi. Salbiy savdo balansi 10,9 mlrd dollarligicha qoldi.


Ko'chmas mulk

Agar yil boshida ko'chmas mulklarning investorlar uchun daromadlilik ko'rsatkichi 30 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, oktyabrga kelib bu 12,2 foizgacha tushib ketdi;

⁸ Pul-Kredit Siyosatining 2025-yil va 2026-2027-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024-yil.




TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Ikkilamchi uy-joy bozori narxlari indeksi⁹

Omonatlar bozorida keskin o'zgarishlar bo'lmadi. 2024-yil boshida ham eng yuqori foizli omonatlar 27 foizgacha edi, yil oxirida ham shunday miqdorda qoldi.

2024 yilning 10 oyida O'zbekistonga 12,6 mlrd dollar pul o'tkazmalari kelib tushdi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34 foizga ko'p bo'ldi.



Pul o'tkazmalari dinamikasi. Mln AQSH dollari¹⁰

Shuningdek investitsiya kiritishda ham 2024-yil muvaffaqiyatli yil bo'ldi. 2024-yilgi investitsiya sohasidagi raqamlar va o'zgarishlarga yuzlansak.

⁹ Pul-Kredit Siyosatining 2025-yil va 2026-2027-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024-yil.

¹⁰ Pul-Kredit Siyosatining 2025-yil va 2026-2027-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024-yil.




TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalr dinamikasi. Mln dollarda.¹¹

Joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi moliyaviy hisob bo'yicha kapital tushumlar, xususan, to'g'ridan to'g'ri, portfel investitsiyalar va boshqa manbalar jalb qilinishi hisobiga moliyalashtirildi.¹²



¹¹ Pul-Kredit Siyosatining 2025-yil va 2026-2027-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024-yil.

¹² O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, 2024 yilning 9 oyi uchun O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha, 2024 y.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR




Hisobot davri yakuniga ko'ra, umumiy tashqi qarz hajmi **60,2 mlrd dollarni** tashkil qilib, shundan davlat tashqi qarzi hajmi qariyb 32,5 mlrd dollar³ hamda korporativ tashqi qarz hajmi 27,7 mlrd dollarga teng bo'ldi.



Davlat qarz va tashqi qarz bo'yicha to'lovlar¹³. YIMga nisbatan foizda
2024-yilgi YIM ning hajmi;

2024 yilning 9 oyida yalpi ichki mahsulotning real o'sishi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 foizni tashkil etdi.¹⁴



Ishlab hiqarish usuli bo'yicha YIMning o'sishi dekompozitsiyasi.¹⁵

2025-2027-yillarda kutilayotgan raqamlar (prognoz);

¹³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, 2024 yilning 9 oyi uchun O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha, 2024 y.

¹⁴ Pul-Kredit Siyosatining 2025-yil va 2026-2027-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024-yil.

¹⁵ Статистика агентлиги.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



O'zbekiston Respublikasi to'lov balansining 2025-yil uchun asosiy va muqobil va risk ssenariylarda dastlabki prognoz ko'rsatkichlari shakllantirildi. Bunda joriy va keyingi yillardagi mamlakatimiz vauning asosiy savdo hamkorlaridagi iqtisodiy faollik darajasi, xalqaro moliya va tovar-xomashyo bozorlari kon'yunkturasi, mehnat va kapital migratsiyasi, tashqi savdo va logistika sohalaridagi o'zgarishlar dinamikasi bo'yicha ekspertlarning kutilma va baholashlari inobatga olindi.



Makroiqtisodiy rivojlanishning ssenariylari¹⁶

I. Asosiy ssenariy

Tashqi va ichki sharoitlarni mo'tadil saqlab qolgan sharoitda iqtisodiyot qanday rivojlanadi?

Kelgusi yilda O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining biroz sekinlashishi prognoz qilinmoqda¹⁷. Xususan, Xalqaro valyuta jamg'armasiga ko'ra, 2025 yilda Xitoy iqtisodiyoti 4,5 foizga (2024 y. 4,8%), Rossiya 1,3 foizga (2024 y. 3,6%), Turkiya 2,7 foizga (2024 y. 3,6%) va Qozog'iston 4,6 foizga (2024 y. 3,5%) o'sishi mumkin.¹⁸

¹⁶ Pul-Kredit Siyosatining 2025-yil va 2026-2027-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024-yil.

¹⁷ Жаҳон иқтисодий истиқболлари, ХВЖ, 2024 й. октябрь.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, 2024 yilning 9 oyi uchun O'zbekiston to'lov balans, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha, 2024 y.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



O'zbekistonning asosiy eksport xomashyo mahsulotlarining jahon narxlari bo'yicha ijobiy kutilmalar saqlanib qolmoqda. Xususan, global geosiyosiy vaziyat va iqtisodiy noaniqliklar fonida keyingi yil davomida rangli va rangsiz metallar (oltin, kumush, mis, uran) narxi keskin o'zgarishlarsiz nisbatan yuqori darajada shakllanishi, paxta (to'qimachilik sohasi asosiy xomashyosi) narxi 2024 yildagi pasayishdan so'ng yalpi taklif kamayishi ortidan biroz ko'tarilishi taxmin qilinmoqda.¹⁹

Yuqorida keltirilgan omillar ta'sirida, shuningdek, 2025 yilda turizm va axborot texnologiyalari (IT) sohasida keng ko'lamli islohotlarning davom ettirilishi natijasida, jami eksport hajmi 2024 yilga nisbatan 9-11 foizga o'sishi kutilmoqda.²⁰

2025-yilda O'zbekistonda iqtisodiy faollik va iste'mol talabi yuqori darajada saqlanib qolishi mashina-uskuna, transport vositalari, yoqilg'i-energetika mahsulotlari, oziq-ovqat va xomashyo importi o'sishida namoyon bo'lishi mumkin. Hukumatning fiskal taqchillikni kamaytirish (fiskal konsolidatsiya) bo'yicha rejalarini inobatga olib, 2025-yilda jami import hajmi 2024-yilga nisbatan 8-10 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda.²¹

II. Muqobil ssenariy

Tashqi iqtisodiy sharoitlarni o'zgarishi ichki sharoitlarni o'zgarishiga va u orqali makroiqtisodiy rivojlanishga ta'siri.

Muqobil ssenariy joriy ichki sharoitlarning saqlanib qolishi va tashqi xatarlarning ortishi, jumladan, global inflyatsiya uzoqroq muddat yuqori darajada shakllanishi, ayrim yirik iqtisodiyotlarda iqtisodiy faollikning sezilarli pasayishi va jahon iqtisodiyoti fragmentatsiyasining kuchayishi bo'yicha xatarlarning ichki iqtisodiyotga salbiy ta'sirlarini inobatga olgan holda ishlab chiqildi.²²

Asosiy ssenariydan farqli o'laroq, muqobil ssenariyda 2025 yil yakuni bilan to'lov balansining joriy operatsiyalari hisobi YAIMning 6,5-8 foiziga teng manfiy saldo bilan shakllanishi taxmin qilinmoqda.

Muqobil ssenariyda, to'lov balansi ko'rsatkichlarining shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir qilishi mumkin:

1. Geosiyosiy vaziyatning keskinlashishi va tashqi savdoda fragmentatsiya jarayonlarining kuchayishi oqibatida O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlarida iqtisodiy faollikning kutilmalarga nisbatan past darajada bo'lishi va yalpi talabning qisqarishi;

2. Xalqaro bozorlarda O'zbekistonning asosiy eksport tovarlari (rangli va rangsiz metallar, paxta xomashyosi, oziq-ovqat mahsulotlari) narxlarining pasayishi;

¹⁹ *Хомашё бозорлари истиқболлари, Жаҳон банки, 2024 й. октябрь.*

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, 2024 yilning 9 oyi uchun O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha, 2024 y.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, 2024 yilning 9 oyi uchun O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha, 2024 y.

²² Pul-Kredit Siyosatining 2025-yil va 2026-2027-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024-yil.



3. Global inflyatsion jarayonlar kuchayishi fonida pul-kredit sharoitlarining qat'iy darajada saqlanib qolishi natijasida tashqi qarz mablag'lariga xizmat ko'rsatish xarajatlarining ortishi va xorijiy investitsiyalar oqimining kamayishi;

4. Sanksiyalarning kuchaytirilishi oqibatida mehnat muhojirlarini qabul qiluvchi an'anaviy mamlakatlarning valyuta kurslaridagi yuqori tebranishlarning kuzatilishi va to'lov tizimlaridagi uzilishlar ortidan transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmining kamayishi;

5. Yakuniy iste'mol xarajatlari ko'payishi va investitsiyaviy faollikning jadallashishi natijasida yalpi talabning oshishi mashina- uskuna va transport vositalari (davlat va xususiy investitsiya dasturlari doirasidagi yirik hajmdagi tovarlar), energoresurslar va boshqa xomashyolar importi o'sishida o'z aksini topishi mumkin.²³

III. Risk ssenariysi

Makroiqtisodiy rivojlanishning asosiy va muqobil ssenariylariga qo'shimcha ravishda inflyatsiyani oshiruvchi xatarlarning ortishiga asoslangan xatarli ssenariy ham ko'rib chiqildi va bunday sharoitda inflyatsiyani pasaytirishga qaratilgan pul-kredit siyosati choralari tahlil qilindi.

O'rta muddatli makroiqtisodiy rivojlanishning ushbu ssenariysida mintaqadagi iqlim o'zgarishining ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga salbiy ta'siri, ishlab chiqarishning cheklanganligi sharoitida fiskal rag'batlantirishlarning kuchaytirilishi hamda energiya resurslari taklifining talabga nomutanosib bo'lishi hisobiga iqtisodiyotdagi yalpi taklifning qisqarishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xatarlar inobatga olindi. Mazkur xatarlar ta'sirida umumiy inflyatsiya 2025 yilda 8-9 foiz, 2026 yilda 7-8 foiz atrofida shakllanishi va 5 foizlik targetga 2027 yilning oxirida yetishi kutilmoqda.²⁴

Xulosa

Yuqorida qayd etilganlarni xulosa qilgan holda O'zbekiston malakat ichki riskida moliyaviy riskni boshqarish va kamaytirishda mamlakat qarzlarini kamaytirishga kam e'tibor qaratmoqda. Bu ishlab chiqilgan ssenariylarning zaif nuqtasi bo'lishi mumkin. Xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohalarining YIMga nisbatan foizi beqarorligini kamaytirishga doir choralarda ham sustkashlik kuzatilmoqda. Shuningdek zamonaviy dunyo texnologiyalaridan foydalanishni maksimal darajaga olib borishda banklar tizimida Suniy intellektdan samarali foydalanish yo'llarini tanlash ham muhim.

²³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, 2024 yilning 9 oyi uchun O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha, 2024 y.

²⁴ Pul-Kredit Siyosatining 2025-yil va 2026-2027-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024-yil.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Fodalanilgan adabiyotlar

1. Форсайт; от прогноза к формированию будущего. Крюков.С.В, Современная экономическая теория
2. Эволюция форсайта: от прогнозирования и планирования к форсайту
3. Технология форсайт в выборе приоритетных стратегий социально-экономического развития
4. <https://lex.uz/docs/-4600824>
5. O'RQ-1014-Son
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, 2024 yilning 9 oyi uchun O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha, 2024 y.
7. Pul-Kredit Siyosatining 2025-yil va 2026-2027-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024-yil.
8. Хомашё бозорлари истиқболлари, Жаҳон банки, 2024 й. октябрь
9. Жаҳон иқтисодий истиқболлари, ХВЖ, 2024 й. октябрь.
10. Статистика агентлиги.